



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00

2023 - yil 29 - dekabr

VII-60-163-5-74-K/23

Nurota tumani hokimligi

Nurota tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi 99-moddasi, Soliq kodeksi 429-, 437-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda “2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'RQ-886-sonli Qonuni, xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2023-yil 28-dekabrda “Navoiy viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida”gi VI-66-128-5-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq hamda Navoiy viloyat Iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrda 01-12/20-05-38/3689-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda “2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'RQ-886-sonli qonuni va Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2023-yil 28-dekabrda VI-66-128-5-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2023-yil 28-dekabrda VI-66-128-5-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Nurota tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 37 905 200,0 ming so'm, xarajatlari 159 720 896,0 ming so'm prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 121 815 696,0 ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Nurota tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi hamda 2024-yilga maqsadli mo'ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun tumanning hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun Navoiy viloyatining viloyat budjetidan Nurota tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Nurota tuman bo'yicha 2024-yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha qo'llaniladigan stavkalar 7-ilovaga, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha qo'llaniladigan stavkalar 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 1 444 334,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg'armaci tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

10. 2024-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 436 704,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

11. Xalq deputatlari tuman Kengashiga keyingi soliq davri uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalariga tegishli kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni hududda joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida kiritilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

12. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

13. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Bo'riyev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (S.Haydarov), tuman soliq inspeksiyasi (O.Jo'raqulov) va boshqa mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetprognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (O.Jo‘raqulov)ga amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq:

solliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu solliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk solliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, solliqlarni to‘liq hisoblanishini ta‘minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e‘tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish yuklansin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (O.Jo‘raqulov), Kadastrlar palatasi Navoiy viloyat boshqarmasi Nurota tuman filiali (E.Ro‘zimurodov) 2024-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulkleri maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan solliqlarni to‘liq hisoblanishini ta‘minlasin.

16. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Jo‘raqulov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (T.Mirzayev) tuman soliq inspeksiyasi (O.Jo‘raqulov) bilan hamkorlikda solliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

18. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (I.Amonov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk solliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan solliqlarni hamda ushbu solliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

19. Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi tuman tik quduqlarni yurgizish bo‘limi (A.Karimov) va tuman soliq ispeksiyasi (O.Jo‘raqulov)ga:

birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun solliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda

moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklansin.

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratsin.

20. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to'liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatishga va natijalari bo'yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliybudjetxarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

21. Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas'ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

22. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Bo'riyev, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha Kengashgahar chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

23. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

24. Mazkur qaror "Nurnoma" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

25. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

26. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Fayziyev

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VII-60-163-5-74-K/23-son
qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Nurota tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi

Foiz miqdorida

№	Ko'rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz
1.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	107,1
2.	Hududiy sanoat o'sish sur'ati, foizda	105,2
3.	Qurilish o'sish sur'ati, foizda	103,1
4.	Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	102,9
5.	Xizmatlar o'sish sur'ati, foizda	117,2

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VII-60-163-5-74-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Nurota tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yilgi asosiy prognoz ko'rsatkichlari

T/r	Daromad turlari	Miqdori (ming so'mda)
JAMI		37 905 200
1	Foyda solig'i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	12 883 200
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (ITD)	125 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4041000
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 835 000
7	Yuridik shaxslar yer solig'i	7 225 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	4 488 000
9	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	1 600 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 708 000
11	Davlat boji	
12	Jarimalar	
13	Ijara to'lovi	
14	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
15	Yig'imlar	

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VII-60-163-5-74-K/23-son
qaroriga
3-ilova

**Tuman byudjetidan 2024-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan
xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, Jami		159 720 896
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	159 720 896
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Indeksatsiya xarajatlari	
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	22 271 187
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	22 271 187
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2.	Tibbiyot birlashmasi	70 179 655
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	70 179 655
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	Madaniyat va omaviy axborot vositalari	2 572 372
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	2 572 372
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	Sport maktabi	6 043 125
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	6 043 125
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	587 100
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	587 100
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	Obodonlashtirish boshqarmasi	19 922 260
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	19 922 260
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	Tuman fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazi	422 059

	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	422 059
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
9.	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	2 210 754
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	2 210 754
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10.	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	10 500
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	10 500
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
11.	Ijtimoiy ko'nikma markazi	54 073
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	54 073
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
12.	Hokimlik	8 513 728
	Hokimlikni saqlash xarajatlari	2 640 503
	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	89 474
	Mahallabay ishlash va kambag'allikni qisqartirish bo'limini saqlash xarajatlari	3 292 453
	Xalq deputatlari tuman Kengashi	247 404
	Oila va xotin qizlar bo'limi	2 243 894
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
13.	Tuman soliq inspeksiyasi	3 914 699
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	3 914 699
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
14.	Yoshlar ishlari agentligi	3 326 987
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	3 326 987
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

15.	Madaniyat bo'limi	163 320
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	163320
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
16.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlikga ko'maklashish bo'limi	2 384 089
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	2 384 089
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
17.	Iqtisodiyot va moliya bo'limi	1 857 539
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	1 857 539
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
18.	Zahira jamg'armasi	1 444 334
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	1 444 334
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
19.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	13 843 115
	<i>shu jumladan:</i>	
	Joriy xarajatlar	13 843 115
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VII-60-163-5-74-K/23-son
qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Nurota tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me'yori

Foiz miqdorida

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
100	100	30	100	100

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VII-60-163-5-74-K/23-son
qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun Nurota tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi

Ming soʻmda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Nurota tumani	37 905200	159 720896

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VII-60-163-5-74-K/23-son
qaroriga
6-ilova

**2024-yil uchun Navoiy viloyatining viloyat byudjetidan Nurota tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan
tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori**

Ming so'mda

№	Hudud nomi	Summa	<i>Shundan, aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar</i>
1	Nurota tumani	121 815 696	15 207 640

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VII-60-163-5-74-K/23-son
qaroriga
7-ilova

**Jismoniy shaxslar bo'yicha 2024-yil qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yer solig'i
stavkalari**

So'mda

T/r	Hudud nomi	Tuman (shaharlar) kesimida 1kv.metr uchun yer solig'i	Tuman (shahar) hududlari (MFY, OFY, dahalar, ko'chalar)	1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasi	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan qo'llanilgan koeffitsiyent (0,7-3,0)		Daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 1kv.metr uchun yer solig'i
					kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	Nurota tuman	384,0	Avazsoy MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
2			Alisher Navoiy MFY	384,0	0,8	1,0	286,0
3			Amir Temur MFY	384,0	0,8	0,0	307,2
4			Bo'diq MFY	384,0	0,8	1,0	286,0
5			G'afur G'ulom MFY	384,0	0,8	1,0	286,0
6			Dehibaland MFY	384,0	0,7	1,0	268,8
7			Jarma MFY	384,0	0,7	1,0	268,8
8			Ibn Sino MFY	384,0	0,8	1,0	307,2
9			Istiqbol MFY	384,0	0,8	1,0	307,2
10			Istiqbol MFY	384,0	0,7	1,0	268,8
11			Qadoq MFY	384,0	0,7	1,0	268,8
12			Kattasoy MFY	384,0	0,7	1,0	268,8
13			Qizilcha MFY	384,0	0,7	1,0	268,8
14			Mirishkor MFY	384,0	0,8	0,0	307,2
15			Nurfaxr MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
16			Okmachit MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
17			Orasoy MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
18			Sayidato MFY	384,0	0,8	0,0	307,2
19			Sentob MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
20			Suvliq MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
21			Temirqovuch MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
22			Turko MFY	384,0	0,8	0,0	307,2
23			Chuya MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
24			Shaxriston MFY	384,0	0,8	0,0	307,2
25			Eshon Sudur MFY	384,0	0,8	0,0	307,2
26			Yangihayot MFY	384,0	0,8	0,0	307,2
27			Yangiturmush MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
28			Mustaqillik MFY	384,0	0,8	0,0	307,2
29			Nurobod MFY	384,0	0,8	0,0	307,2
30			Bo'ston MFY	384,0	0,7	0,0	268,8
31			Tinchlik MFY	384,0	0,7	0,0	268,8

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VII-60-163-5-74-K/23-son
qaroriga
8-ilova

**2024-yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarga hisoblanishi kutilayotgan
yer solig'i stavkasi**

So'mda

T/r	Hudud nomi	Tuman (shaharlar) kesimida 1ga uchun yer solig'i	Tuman (shahar) hududlari (MFY, OFY, dahalar, ko'chalar)	1ga uchun bazaviy solig stavkasi	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan qo'llanilgan koeffitsiyent (0,7-3,0)		Daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 1ga uchun yer solig'i
					kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	Nurota tuman	43200 000	Avazsoy MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
2			Alisher Navoiy MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
3			Amir Temur MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
4			Bo'diq MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
5			G'afur G'ulom MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
6			Dehibaland MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
7			Jarma MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
8			Ibn Sino MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
9			Istiqbol MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
10			Istiqloq MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
11			Qadoq MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
12			Kattasoy MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
13			Qizilcha MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
14			Mirishkor MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
15			Nurfaxr MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
16			Oqmachit MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
17			Orasoy MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
18			Sayidato MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
19			Sentob MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
20			Suvliq MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
21			Temirqovuq MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
22			Turko MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
23			Chuya MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
24			Shaxriston MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
25			Eshon Sudur MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
26			Yangihayot MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
27			Yangiturmush MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
28			Mustaqillik MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
29			Nurobod MFY	43 200 000	0,8	0,0	34 560 000,0
30			Bo'ston MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0
31			Tinchlik MFY	43 200 000	0,7	0,0	30 240 000,0